

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**

**YONG'IN XAVFSIZLIGI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR
MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

RAHBARIY HUJJAT

**YONG'IN AVTOMATIKA QURILMALARI.
TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA
REJAVIY - OGOHLANTIRUV TA'MIRLASH
RH 01- 003:2022**

Rasmiy nashr

TOSHKENT 2022

UDK 614.844

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djuraev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2022-yil 15-oktabrdagi 474-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

RH 01-003:2022 "Yong'in avtomatika qurilmalari. Texnik xizmat ko'rsatish va rejaviy - ogohlantiruv ta'mirlash".

RH 01-003:2022 "Yong'in avtomatika qurilmalari. Texnik xizmat ko'rsatish va rejaviy - ogohlantiruv ta'mirlash" kuchga kirgandan so'ng, YoXRH 01-003:2008 "Yong'in avtomatikasi qurilmalari. Texnik xizmat ko'rsatish va rejaviy – ehtiyot ta'mirlash" o'z kuchini yo'qotadi.

Ushbu hujjat rasmiy nashr sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutining ruxsatisiz to'liq yoki qisman talqin qilinishi, tirajlanishi va tarqatilishi mumkin emas.

RH 01-003:2022 “Yong‘in avtomatika qurilmalari. Texnik xizmat ko‘rsatish va rejaviy - ogohlantiruv ta‘mirlash”

Qo‘llanilish sohasi

Mazkur qoidalar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga (keyingi o‘rinlarda—ob‘ektlar) o‘rnatilgan va ishga tushirilgan yong‘in avtomatika tizimlari*, qurilma va vositalarini texnik xizmat ko‘rsatish va rejaviy-ogohlantiruv ta‘mirlash (keyingi o‘rinlarda-TXK va ROT) bo‘yicha ishlarni tashkil etish va ularni bajarish tartib-qoidalarini belgilaydi.

Har bir ob‘ektda** yong‘in avtomatikasi qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ular ishga tushirilgan paytdan boshlab tashkil etilishi kerak.

Izoh:

* *Yong‘in avtomatika qurilmalari va vositalari - yong‘in avtomatika qurilmalari va qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni o‘chirish, yong‘inga qarshi himoya tizimlari, yong‘in to‘g‘risida habar berish va evakuatsiyani boshqarish, shuningdek ushbu qurilmalarning tarkibiy qismlari.*

** *Idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, yong‘in avtomatikasi qurilmalari bilan jihozlangan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar.*

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Yong‘in avtomatika qurilmalarini butun xizmat muddati davomida ishchi va soz holatda saqlash, shuningdek yong‘in sodir bo‘lganda ularning ishlashini ta‘minlash maqsadida TXK va ROT ishlari olib boriladi.

2. TXK va ROT ishlari ushbu qoidalarining **10-15 ilovalarida** keltirilgan namunaviy reglament talablariga muvofiq davriy yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3. TXK va ROTning asosiy vazifalari quyidagilar:

- a) yong‘in avtomatika qurilmalarining texnik holatini nazorat qilish;
- b) yong‘in avtomatika qurilmalarini, shu jumladan ularning elektr va boshqa parametrlarining loyiha va texnik hujjatlar talablariga muvofiqligini tekshirish;
- v) yong‘in avtomatika qurilmalariga salbiy iqlim, sanoat va boshqa nomaqul sharoitlarning ta‘sir qilish oqibatlarini bartaraf etish;
- g) yong‘in avtomatika qurilmalarining o‘z-o‘zidan (yolg‘ondan) ishlab ketish sabablarini aniqlash va bartaraf etish;
- d) yong‘in avtomatika qurilmalarini tekshirish orqali, kelgusida ulardan foydalanish mumkinligi yoki mumkin emasligini, sozligini, chegaraviy holatini aniqlash;
- e) xizmat ko‘rsatilayotgan yong‘in avtomatika qurilmalarini texnik holati va undan foydalanish davomida ishonchli ishlashi haqidagi ma‘lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- j) yong‘in avtomatikasi qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlashni shakl va usullarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

4. Yong‘in avtomatika qurilmalarida TXK va ROT ishlari, o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) rejaviy profilaktik ishlarni amalga oshirish;



HUJJATNING TO‘LIQ VERSIYASIGA KIRISH CHEKLANGAN

Hujjatni sotib olish uchun buyurtma berishingiz kerak.
Hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutida buyurtma qilishingiz mumkin.

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun telefon **71 212-68-68**